Universitet rektorining 2026-yil 17-sentabrdagi
01-386-sonli buyrug‘iga 3-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIGA BIRIKTIRILGAN ADIBLAR HAQIDA MA’LUMOT

Toshkent – 2026

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIGA BIRIKTIRILGAN ADIBLAR HAQIDA MA’LUMOT

SIROJIDDIN SAYYID

1. Adib hayoti haqida. 1958-yil 30-oktabrda Surxondaryo viloyatida joylashgan Sariosiyo tumani Kundajuvoz qishlog‘ida tavallud topgan. 1979-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi – O‘zMU)ning jurnalistika fakultetini bitirgan. Oilali, 1 nafar farzandi bor. Hozirda Toshkent shahrida yashaydi.

2. Adibning faoliyati haqida.“Toshkent oqshomi” gazetasida tarjimon, muxbir, bo‘lim mudiri, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi muxbiri, “Mushtum” jurnali bo‘lim mudiri, “Vatan” gazetasida sharhlovchi, bo‘limi boshlig‘i, mas’ul kotib, “Sharq” xalqaro jangovor kurashlar klubi raisi o‘rinbosari, “Tafakkur” jurnali bo‘lim mudiri, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi bo‘lim muharriri, bosh muharriri, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari kabi fazifalarda faoliyat yuritgan. 2018-yildan buyon O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi.

3. Adib ijodi haqida. “Ruhim xaritasi”, “Salqin xarsanglar kaftida”, “Sevgi mamlakati”, “Asragil”, “Mehr qolur, muhabbat qolur”, “Kuydim”, “Uyingdagi beshiklar”, “Vatanni o‘rganish”, “Egasi bor yurt”, “Vatan abadiy”, “Ustimizdan o‘tgan oylar”, “Ko‘ksimdagi zangorlarim”, “Ko‘ngil sohili”, “Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni”, “Dil fasli”, “Yashasin yomg‘irlar”, “So‘z yo‘li” (ikki jildlik tanlangan asarlar), “Bug‘doybo‘y Vatan”, “Ochil, ey gul, ki bo‘ston vaqti bo‘ldi”, “Xayyomdan bir kosa, Rumiydan bir jom”, “Xamsa” hayratlari”, “Onamning kulchalari”, “Matonat manzumasi”, “Asarlar” to‘plami (4-jildlik), “Alamli dunyoda alamli gulim”, “Eldoshlarim, dildoshlarim”, “So‘zmunchoq”, “Millat baxtin so‘rar millat otasi”, “Vaqt haykali”, “Yuz yuh, Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli she’riy va publitsistik kitoblari chop etilgan.

4. Adibning eng sara va mashhur asarlari ro‘yxati:“Kuydim”, “Ochil, ey gul, ki bo‘ston vaqti bo‘ldi”, “Alamli dunyoda alamli gulim”, “Ko‘ksimdagi zangorlarim”, “Uyingdagi beshiklar” to‘plamlari va bir qancha she’rlari.

5. Adibning film (serial, hujjatli film) bo‘lgan asarlari: -

6. Adibning qo‘shiq bo‘lgan asarlari: Sherali Jo‘rAyev, Oxunjon Madaliyev, Ozodbek Nazarbekov, Oybek Hamroqulov kabi taniqli xonandalar tomonidan “Kuydim”, “Do‘stlari kelsayu, kelmasa bolam...”, “Alamli dunyoda alamli gulim”, “Xorazmcha”, “Naysonim Vatan”, “Bug‘doybo‘y Vatan”, “Chamandirsan chamandan tashqarida” kabi qator she’rlari qo‘shiq qilib kuylangan.

7. Adibning spektakl bo‘lgan asarlari:

8. Adibning qanday mukofotlari mavjud: 1999-yilda “Do‘stlik” ordeni, 2006-yilda “O‘zbekiston xalq shoiri” faxriy unvoni, 2018-yilda O‘zbekiston

Respublikasi davlat mukofoti, 2021-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan.

9. Adibning so‘nggi chop etilgan kitobi (asari): 2023-yilda “Vaqt haykali”, “Yuz yuh, Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli kitoblari nashr qilingan.

10. Adibning boshqa (qaysi) tillarga tarjima qilingan asarlari: She’rlari rus, belarus, ingliz, turk, tojik, qozoq, ozarbayjon, qoraqalpoq va boshqa tillarga tarjima qilingan.

11. Adib tarjima qilgan asarlar: Pushkin lirikasidan namunalar, atoqli shoir Andrey Voznesenskiyning “Mangu rizq” she’rlar va nasriy kitobini, bulg‘or shoiri Lyubomir Levchev she’rlarini, jahonshumul musavvir Pablo Pikassoning she’riy tajribalarini, Abu Homid G‘azzoliyning “Munojot lazzati” nomli hikmatlarini, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy g‘azallari bilan hikmatlarini, Rudakiy, Aleksandr Faynberg, Loyiq Sherali she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

12. Adibning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari:

13. Adib hayoti va ijodi haqidagi kitob va ilmiy asarlar: Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, Nurboy Jabborov, Bahodir Karim, Rustam Musurmon va boshqa adabiyotshunos olimlar va shoir-yozuvchilar Sirojiddin Sayyid ijodi haqida ko‘plab maqolalar e’lon qilishgan.

14. Adib bilan bog‘lanish: 71 231-83-49

YAHYOXON FAYOZ

1. Adib hayoti haqida: Yahyoxon Fayoz (Mahmudov) - 1988-yil Boysun tumanida tug‘ilgan tug‘ilgan.

2. Adibning faoliyati haqida. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tamomlagan. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi.

3. Adib ijodi haqida. “Baxtimizning zar tumorlari” kitobi chop etilgan.

Adibning eng sara va mashhur asarlari ro‘yxati:

Adibning film (serial, hujjatli film) bo‘lgan asarlari:

1. Adibning qo‘shiq bo‘lgan asarlari: “Ko‘ngil”, “Ota”, “Keldim-a”

2. Adibning spektakl bo‘lgan asarlari:

3. Adibning qanday mukofotlari mavjud:

4. Adibning so‘nggi chop etilgan kitobi (asari

5 .Adibning boshqa (qaysi) tillarga tarjima qilingan asarlari: -

6. Adib tarjima qilgan asarlar:.

7. Adibning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari:

8. Adib haqidagi kitob va ilmiy asarlar:

Adib bilan bog‘lanish: 91 573 92 82, 95 857 42 35

ZAVQIDDIN NASIMOV

1. **Adib hayoti haqida.** 1991-yil 31 martda Samarqand viloyati Toyloq tumanida shifokorlar oilasida tug‘ilgan. Oilali ikki nafar farzandi bor. Hozirda Toshkent shahri Yangi Hayot tumanida yashaydi.

2. **Adibning faoliyati haqida.** 2013-2017-yillarda O‘zbekiston Davlat jahon tillari universitetining Xalqaro Jurnalistika fakul’teti bakalavr, 2023-2025-yillar Xalqaro Nordik universitetini Magistraturani tamomlagan. 2017-2018-yillarda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazida yetakchi muhaxassis, 2018-2020-yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida matbuot kotibi, 2021-dan buyon O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat yuritib kelmoqda.

3. **Adib ijodi haqida.** 2011-yilda Sharq NMIUda “Ruhsiz tandan chiqqan sadolar yoxud behuda o‘tayotgan kunlar” nomli kitobi nashr etilgan. Bundan tashqari. “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Mushtum”, kabi jurnallarda hikoyalari e’lon qilinmoqda.

4. Adibning eng sara va mashhur asarlari ro‘yxati:

5. Adibning film (serial, hujjatli filьm) bo‘lgan asarlari: -

5.1. Adibning qo‘shiq bo‘lgan asarlari:

5.2. Adibning spektakl bo‘lgan asarlari:

6. Adibning qanday mukofotlari mavjud:

7. Adibning so‘nggi chop etilgan kitobi (asari): 2011-yilda Sharq NMIUda “Ruhsiz tandan chiqqan sadolar yoxud behuda o‘tayotgan kunlar”.

8. Adibning boshqa (qaysi) tillarga tarjima qilingan asarlari:

9. Adib tarjima qilgan asarlar:

10. Adibning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari:

https://www.facebook.com/ , https://www.instagram.com/

11. Adib hayoti va ijodi haqidagi kitob va ilmiy asarlar:

12. Adib bilan bog‘lanish: 99-827-21-23,